

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI



Ro'yxatga olindi: 61010100-101
2024 yil "19" avgust

TURIZM: NAZARIYA VA AMALIYOT

O'QUV DASTURI

| | | |
|--------------------|----------|----------------------------|
| Bilim sohasi: | 1000000 | - Xizmatlar |
| Ta'lim sohasi: | 1010000 | - Xizmat ko'rsatish sohasi |
| Ta'lim yo'nalishi: | 61010100 | - Turizm va mehmondo'stlik |

SAMARQAND-2024

| | | | | |
|-----------------------------------|--|---|-------------------------------|-------------------------------------|
| Fan/modul kodi TNA1106 | | O'quv yili 2024 - 2025 | Semestr 1 | Kreditlar 6 |
| Fan/modul turi Majburiy | | Ta'lim tili O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari 6 |
| 1 | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Turizm: nazariya va amaliyot | 72 | 108 | 180 |
| 2 | <p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga turizm sohasining mohiyatini ochib berish, turizmning taraqqiyot yo'li, tajribasi, hozirgi kundagi muammolarini aniqlab olish, turizmning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatini yoritib berish, O'zbekiston va jahon turizm biznesining tarqqiyotini o'rgatishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarga turizmning mazmun mohiyatini, uni o'rganishdagi asosiy yondashuvlarni, turizmning yillar davomidagi rivojlanish jarayonlari, tarixi, turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlarini, turizm turilari va ularning tasniflanishini, turizm sohasini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlarning o'rnini, turizmning tarkibiy strukturasi, turizm sohasidagi asosiy va qo'shimcha xizmatlarni turizm sohasini boshqarishning tashkiliy mexanizmlarini, O'zbekiston Respublikasining turizm sohasidagi davlat siyosatini, turizm xizmatlarini litsenziyalashtirish, sertifikatlashtirish va standartlashtirish kabilar bo'yicha tasavvurini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, moliyaviy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.</p> | | | |
| 3 | <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1 - mavzu. «Turizm: nazariya va amaliyot» faniga kirish</p> <p>“Turizm: nazariya va amaliyot” fanining maqsad va vazifalari. Turizmning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rnini. Turizm sohasini rivojlantirishning maqsadi va vazifalari. O'zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda turizmning roli. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish bosqichlari.</p> <p>2 - mavzu. Sayohatchi va turist haqidagi tushunchalarning mohiyati</p> <p>Turizmning shakllanish tarixi. Sayohatchi va turistni ajratib turuvchi asosiy farqlar. Markaziy Osiyoda turizmni shakllantirishning tarixiy-xronologik asoslari. Zamonaviy turizm asoschisi Tomas Kuk tomonidan amalga oshirilgan ishlar.</p> | | | |

3 - mavzu. Turizm sohasining tasniflanishi va turlari

Turizm sohasining tasniflanishi. Turizm sohasining turlari. Aktiv va passiv turizm turlarining xususiyatlari. Turizm turlarining o'ziga xos jihatlari. Turistik-rekreatsion klasterni shakllantirish

4 - mavzu. Turizm sohasining resurslari

Turizm resurslarining mohiyati. Turizm resurslarining guruhlanishi. Tabiiy va infratuzilmali turistik resurslar. Rekreatsiya sifatida foydalanish turiga ko'ra turistik resurslar. Madaniy - tarixiy turistik resurslar. Ijtimoiy-iqtisodiy turistik resurslar. Turistik axborot resurslari.

5 - mavzu. Turizm sohasidagi xizmatlar va mahsulotlar

Turistik xizmatlar va mahsulotlar. Turistik xizmatlar xususiyatlarining «4 ta S» bilan ifodalanishi. Xizmat ko'rsatish klasslari va xizmatlar paketi. Asosiy va qo'shimcha turistik xizmatlar. Turmahsulotning turistik harajatlar bo'yicha tarkibi. Turizm mahsulotining tarkibiy tuzilishi.

6 - mavzu. Turizm sohasida joylashtirish xizmatlari

Turizm sohasida joylashtirish vositalari va xizmatlari. Mehmonxonalarining turlari va tasnifi. Turistlar va mehmonlarning joylashtirish vositalari. Funktsional vazifasiga qarab mehmonxonalarining turlari. Xalqaro mehmonxonalarining tasniflash tizimi.

7 - mavzu. Turizm sohasida ovqatlantirish xizmatlari

Turizm sohasida ovqatlantirish xizmatlari. Turizm sohasida ovqatlantirish xizmatlarining turlari va tasnifi. Umumiy ovqatlanish sohasi sub'ektlarining tasniflanishi. Xizmat ko'rsatish turlari va menyular.

8 - mavzu. Turizm sohasida transport xizmatlari

Turizm sohasida transport xizmatlari. Turizm sohasida transport vositalari. Turizm maqsadlari uchun foydalaniladigan transport vositalarining turlari.

9 - mavzu. Turizm turlarini ishlab chiqish texnologiyasi

Turistik xizmatlarni loyihalashtirish va dasturini yaratish. Turistik mahsulotni hisoblash jarayoni. Turistik marshrutni ishlab chiqish bosqichlari. Turistik sayohatning yo'llanmasi va texnologik haritasini tuzish.

10 - mavzu. Turizm industriyasi va infratuzilmasi

Turizm industriyasi va turizm infratuzilmasining mohiyati hamda tarkibiy qismi. Turoperatorlar va turagentlar faoliyati. Tashkillashtirilgan turizm bozorining tarkibi.

11 - mavzu. O'zbekistonda ichki turizmning rivojlanishi

O‘zbekistonda ichki turizmning rivojlanish holati. Ichki turizm rivojlanishining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri. Ichki turizm statistikasi.

12 - mavzu. O‘zbekistonda xalqaro turizmning rivojlanishi

Xalqaro turizmni rivojlantirishda «Buyuk Ipak yo‘li» va xalqaro turizm yarmarkalarining o‘rni. O‘zbekistonda xalqaro turizmning rivojlanish holati. O‘zbekiston fuqarolarining chet elga chiqishlari va xorijiy fuqarolarning kelish dinamikasi. O‘zbekistonga xalqaro turistlarning turli maqsadlarda kelish dinamikasi.

13 - mavzu. Turizm sohasini boshqarishning tashkiliy tuzilmasi va davlat tomonidan boshqarish yo‘nalishlari

Xorijdagi turizm sohasi boshqaruvining modellari. O‘zbekistonda turizm majmuasini boshqarishning tashkiliy tuzilmasi. Turizm xizmatlari sohasida marketingning nazariy asoslari. Turizm sohasini davlat tomonidan boshqarishning yo‘nalishi va mexanizmlari. Turizmni davlat tomonidan boshqarishning funktsiya va usullari. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan turizm sohasiga oid me‘yoriy - huquqiy hujjatlar.

III. Amaliy (interfaol usullarda auditoriyada) mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Turizm sohasini rivojlantirishning obektiv zarurati
2. Sayohatchi va turistning o‘xshash va farqli jihatlari
3. Turizm sohasining tasniflashi, turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari
4. Turizm sohasining resurslari va ulardan foydalanish imkoniyatlari
5. Turizm sohasidagi xizmatlarning xususiyatlari va turistik mahsulotlar
6. Turizm sohasida mehmonxonalar va shunga o‘xshash joylashtirish vositalaridagi xizmatlar
7. Turizm sohasida umumiy ovqatlantirish korxonalarini xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari
8. Turizm sohasida transport xizmatlarini tashkil etish imkoniyatlari
9. Turizm turlari va marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi
10. Turizm industriyasi va infratuzilmasining tarkibi hamda ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar
11. O‘zbekistonda ichki turizm imkoniyatlari va rivojlanish holati
12. O‘zbekistonda xalqaro imkoniyatlari va rivojlanish holati
13. Turizm sohasini tashkil etish va boshqarishning tashkiliy tuzilmasi, davlatning turizm siyosati

IV. Amaliy (korxonalar va tashkilotlarda) mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

1. Turizm sohasini rivojlantirishda O‘zbekistondagi tarixiy shaharlarning ahamiyati

2. O'zbekistonning tarixiy-madaniy obidalarini va ularning turizmni rivojlantirishdagi o'rni

3. O'zbekistonda festivallar va madaniy tadbirlar orqali turizmni rivojlantirish

4. Turizm sohasida gid - ekskursiya xizmati

5. Turistik marshrutlarni ishlab chiqish va tahlil qilish yo'llari

6. Turistik xizmatlarning sifatini oshirishda xorijiy tajriba

7. Turizmda innovatsion yechimlar va yangi texnologiyalar

8. Turizmda madaniy merosni asrash va targ'ib qilish

9. Turistik brendlar yaratish va ularning marketingi

10. Turizmda iste'molchi huquqlari va iste'molchilarni himoya qilish

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Turizmda transport vositalari

2. Turizmda joylashtirish vositalari

3. Turizmda ovqatlanish korxonalarini

4. Turizmda sayr – tomoshalar va ko'ngil yozish infratuzilmasi

5. Turizm infratuzilmasida sayohat agentliklari

6. Turizmda ekskursiya xizmatlari ko'rsatish

7. Turizmda litsenziyalash

8. Turizmda xizmatlarni sertifikatlash va standartlash

9. Turizmda sug'urtalash

10. Turizmda rasmiyatchilik

11. Turistik resurslarning mohiyati va tasnifi

12. Ekologik turizmni rivojlantirish resurslari

13. Diniy turizmni rivojlantirish resurslari

14. Turizmda xizmatlar va ularning xususiyatlari

15. Turoperatorlik xizmatlarida turistlar xavfsizligini ta'minlash

16. Turistik mahsulotlarni reklama qilish

17. Turistik bozor tushunchasi va vazifalari

18. Turistik marshrutlarni ishlab chiqish usullari

19. Turistik marshrutlar ishlab chiqishning tamoyillari

20. Turistik marshrutlarida marketing tadqiqotlari

21. Turizmning maxsus turlari

22. Mehmonxonalarni tasniflash tizimi

23. Mehmonxonalarda ko'rsatiladigan asosiy va qo'shimcha xizmatlar

24. Mehmonxona xo'jaligida sanitariya-gigiyena talablari

25. Mehmonxonada turistlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish yo'llari

26. Mehmonxona xizmatlarini ko'rsatishda xorijiy tajribadan foydalanish

27. Mehmonxonalarda sifatli xizmat ko'rsatishni tashkil qilish

VI. Kurs (loyiha) ishi

Kurs ishi uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekistonning turistik salohiyati va rivojlantirish strategiyalari.
2. Zamonaviy turizmning ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri.
3. O'zbekistonning YUNESKO ro'yxatidagi tarixiy shaharlari va ularning turizm sohasidagi roli.
4. Turistik-rekreatsioon klasterlarni shakllantirish imkoniyatlari
5. Turizmda xizmatlarni sertifikatlash va standartlash.
6. O'zbekistonning tabiiy va madaniy turistik resurslari.
7. Eko-turizmning O'zbekistonda rivojlanish istiqbollari.
8. Gastronomiya turizmining O'zbekistondagi imkoniyatlari.
9. Turizmda gid-ekskursiya xizmatlari va ularning roli.
10. O'zbekistonda ichki va xalqaro turizmning rivojlanishi.
11. Mehmonxonalar va joylashtirish vositalarining turlari va tasnifi.
12. Turizm infratuzilmasida sayohat agentliklari faoliyati.
13. O'zbekistonda turizm xizmatlarini litsenziyalash va tartibga solish.
14. Turizmda transport xizmatlari va ularning ahamiyati.
15. Turizmda ovqatlantirish xizmatlari va ularning tasnifi.
16. Turizmda sug'urtalash xizmatlari va rasmiyatchilik.
17. Mehmonxona xo'jaligida sanitariya-gigiyena talablari.
18. Turistik mahsulotlarni reklama va targ'ibot qilish usullari.
19. O'zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirish istiqbollari.
20. Turizmda barqaror rivojlanish va ekologik masalalar.
21. Turizm sohasidagi axborot texnologiyalari va ularning roli.
22. O'zbekistonning turoperatorlari va turagentliklari faoliyati.
23. Mehmonxona menejmenti va xizmat ko'rsatish standartlari.
24. Turizm sohasida raqamli marketing va onlayn platformalarning roli.
25. Turizmda xalqaro tajriba asosida xizmatlar yaratish imkoniyatlari.
26. O'zbekistonda ziyorat turizmi va uning rivojlanish istiqbollari.
27. Turizmda ijtimoiy media va uning ta'siri.
28. O'zbekistonda milliy parklar va ularning turistik imkoniyatlari.
29. Turizm sohasida ekologik sertifikatlash va yashil standartlar.
30. O'zbekistonda etno-turizm va mahalliy aholi bilan hamkorlik.
31. O'zbekistonda sport turizmi va uning imkoniyatlari.
32. Turizmda sog'liqni saqlash va sanitariya talablari.
33. O'zbekistonda mehmonga xizmat ko'rsatishda milliy urf-odatlar va an'analar.
34. O'zbekistonda tibbiy turizm va uning rivojlanish istiqbollari.
35. Turizmda kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish.
36. Xalqaro turizm bozoridagi tendensiyalar va O'zbekistonning o'rni.
37. O'zbekistonning maxsus turistik zonalari va ularning rivojlanish

| | |
|---|---|
| | <p>strategiyalari.</p> <p>38. Turizmda xavfsizlik va xavfsizlikni ta'minlash usullari.</p> <p>39. Turizmda madaniyatlararo muloqot va uning ahamiyati.</p> <p>40. Turizmda qo'shimcha xizmatlar va ularning turlari.</p> <p>41. O'zbekistonning gastronomik resurslari va ularning turizmga ta'siri.</p> <p>42. Turizmda jamoatchilik bilan aloqalar va reklama kampaniyalari</p> |
| 4 | <p>VII. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> -turizm istiqbollari, turizm yillar oralig'ida rivojlanishi, kasb faoliyatining imkoniyatlari, xalqaro, milliy, hududiy va boshqa tashkilotlar, yo'lovchilarni tashish, mehmondo'stlik va unga aloqador xizmatlar, yetkazib berish jarayonidagi tashkilotlar, attraksionlar, ko'ngilochish, xordiq chiqarish va boshqa turistik tanlov, turizm sohasini rivojlantirishda O'zbekistondagi tarixiy shaharlarning ahamiyati haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>; – maroqli sayohatga motivatsiya, talabni hisoblash va bashorat qilish, turizmni rejalashtirish, rivojlantirish va ijtimoiy talqini, sayohat va turizmdagi tadqiqot, turizm marketingi; turizm turlari, shakllari va resurslari, gid-ekskursiya xizmati, O'zbekiston Respublikasining turizm sohasidagi Davlat siyosati <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; – hayotni sermazmun o'tkazishda madaniy va xalqaro turizmning o'rni, turizm jamiyatshunosligi, turizm tarkibiy qismlari va ta'minot, turizmning iqtisodiy ta'siri, turizm siyosati: tuzilishi, tarkibi va jarayoni, turizm va atrof-muhit; turizm kelajagi, O'zbekistonda gastronomiya turizmini rivojlantirish istiqbollari, O'zbekistonda ekoturizm va qishloq turizmini rivojlantirish istiqbollari <i>ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak</i>. |
| 5 | <p>VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; • interfaol keys - stadilar; • blits - so'rov; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar namoyishi; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 6 | <p>IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar xaqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish yoki testni topshirish.</p> |
| 7 | <p>Asosiy adabiyotlar:</p> <p>1. Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduhamidov S.A. "Turizm: nazariya va amaliyot". Darslik. T.: "Fan va texnologiya", 2018 y.</p> |

| | |
|----|---|
| | <p>2. Tuxliyev I.S., Abduhamidov S.A. “Turizm: nazariya va amaliyot”. Darslik. T.: “Fan va texnologiya”, 2020 y.</p> <p>3. Mamatqulov M.X. Bektemirov A.B., Tuxliyev I.S. “Xalqaro turizm” Darslik. Toshkent., 2009 y. 191 b.</p> <p>4. Hayitboyev R. va boshq. “Turizm marshrutlarini ishlab chiqish” O‘quv qo‘llanma. Samarqand., 2016 y. 175 b.</p> <p>Qo‘shimcha adabiyotlar:</p> <p>1. Александрова А.Ю.«Международный туризм» Учебник. М: «КНОРУС» 2010. 464</p> <p>2. Кварталнов В.А., Туризм . Учебник. М., «Финанси и статистика». 2004. 320 с.</p> <p>3. Komilova F.K., Xalqaro turizm bozori. O‘quv qo‘llanma T.,TDIU-2006. 191 b.</p> <p>4. Soliyev A.S., Usmonov M.R. Turizm geografiyasi (Samarqand viloyati misolida) – Samarqand: SamDU, 2005 y.</p> <p>5. Ю.В.Савелева, О.В.Толстогузова. Управление развитием туризма в регионе. – Петрозаводск: Изд-во Карельского научного центра РАН, 2008. 141 с.</p> <p>6. Ibadullayev N.E. O‘zbekistonning turistik resurslari. Ma’ruzalar kursi. – Samarqand, SamISI, 2008. -114 b.</p> <p>Axborot manbaalari:</p> <p>1. www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasining hukumat portali.</p> <p>2. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.</p> <p>3. www.world-tourism.org – Butunjahon turizm tashkiloti</p> |
| 8 | <p>Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O‘quv uslubiy kengashining 2024-yil 19 avgustdagi 1-sonli yig‘ilish bayoni bilan tasdiqlangan. (№ <u>FD-15/13</u>)</p> |
| 9 | <p>Fan/modul uchun ma’sul: S.A.Abduhamidov – SamISI “Turizm” kafedrasini mudiri, dotsent</p> |
| 10 | <p>Taqrizchilar: Muhammadjonov F. – “Dinara tour service” turistik firmasi direktori Usmanov M.R.– SamDU, “Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya” kafedrasini dotsenti, g.f.n.</p> |